



15- laboratoriya ishi

Temirning (II)- va (III)-gidroksidlarini olish

1. Probirkaga 2—3 *ml* temir (II)-sulfat tuzi eritmasidan quying. Unga oz miqdorda o'yuvchi natriy eritmasidan qo'shing. Hosil bo'lgan cho'kmaga oz-ozdan xlorid kislota eritmasi qo'shing.
2. Probirkaga 2-3 *ml* temir (III)-xlorid eritmasidan quying. Unga oz miqdorda o'yuvchi natriy eritmasidan qo'shing. Natijada, hosil bo'lgan cho'kmaga sulfat kislota eritmasidan oz-ozdan quying.

Mustaqil xulosa uchun topshiriq

1. Yuqorida sodir bo'lgan kimyoviy reaksiyalarning tenglamalarini yozing.
2. Har bir tajribada sodir bo'lgan ranglar o'zgarishiga e'tibor bering va bu o'zgarishlar sababini tushuntiring.
3. $\text{Fe}(\text{OH})_2$ va $\text{Fe}(\text{OH})_3$ gidroksidlarni qanday olish mumkin?
4. Temirning ikki va uch valentli birikmalarining ranglarini o'zaro taqqoslang.